

Ustozga ehtirom - millatga ehtirom!

Mashg'ulot maqsadi

- ✓ Ustozning bola hayotidagi o'rni, uning ta'lim berish, tarbiyalash va to'g'ri yo'l ko'rsatishdagi mehnati haqida yoshga mos tushuncha hosil qilish;
- ✓ O'quvchilarda ustozga hurmat va minnatdorlikni salomlashish, xushmuomalalik, diqqat bilan tinglash, maktab qoidalariga rioya qilish va ustozning mehnatini qadrlash orqali namoyon etish tuyg'usini shakllantirish.
- ✓ Ustozdan nafaqat fanlarni, balki odob, tartib, mehnatsevarlik, halollik, mehribonlik va mas'uliyat kabi yaxshi fazilatlarni o'rganish;
- ✓ Berilgan vazifalarni mustaqil bajarish, o'z xatosini anglash va uni tuzatishga intilish orqali o'quv mas'uliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar

- Videokontent mazmunini tushunib, o'z so'zlari bilan ifodalay olish.
- Ustoz mehnatining qadrini anglab, unga nisbatan minnatdorlik bildirsa olish.
- Millatidan qat'i nazar, har bir ustozga baravar hurmat ko'rsatish zarurligini tushunish.
- O'z fikr va munosabatini og'zaki hamda ijodiy (rasm, tarqatma kartochka) shakllarda ifodalay olish.

KERAKLI JIHOZLAR

- Elektron doska
- “Qanot” va “Ustozga hurmat” videokontentlari (yoki ularning matnli ssenariysi)
- “Ortiqchasini top” o'yini uchun rasmlar (slaydlar)
- 5 ta katta oq qog'oz
- Rangli qalamlar yoki flomasterlar

Mashg'ulot ishlanmasi (asosiy bosqichlar)

Vaqt	Bosqich	Faoliyat mazmuni
4 daq	Diqqatni jalb qilish (“Ortiqchasini top”)	O'quvchilar ortiqchasini topadilar
3 daq	Motivatsiya	“Ustoz” so'zi asosida assotsiatsiyalar aytiladi.

4 daq	1-video namoyishi (“Qanot”)	O‘quvchilar videoni diqqat bilan kuzatadilar va ustozning o‘quvchilarga munosabatidagi jihatlariga e‘tibor beradilar.
5 daq	1-video muhokamasi	O‘quvchilar savollarga javob beradilar, videodagi vaziyatlar yuzasidan o‘z fikrlarini bildiradilar va ustozning harakatlarini izohlaydilar.
4 daq	2-video namoyishi (“Ustozga hurmat”)	Buyuk ajdodlarimizning ustoziga bo‘lgan ehtiromi haqidagi video ko‘rsatiladi.
5 daq	2-video muhokamasi	O‘quvchilar videodagi voqea yuzasidan savollarga javob beradilar, Navoiyning ustoziga bo‘lgan hurmatini izohlaydilar va o‘z fikrlarini bildiradilar.
14 daq	Amaliy o‘yin: “Ustoz bergan bilim bilan yaratiladigan kelajak”.	O‘quvchilar 5ta guruhga bo‘linib, kelajak shahrining bir qismini (kelajak uylari, kelajak maktablari, shifoxona va yordam markazi, bog‘lar va dam olish joylari, Kelajak texnologiyalari) chizib, taqdim etadi.
4 daq	Yakunlovchi qism	Refleksiya: O‘quvchilar “Bugun ustoz haqida bildim...”, “Ustozimga hurmatimni ... orqali ko‘rsataman” jumllarini davom ettiradilar.
2 daq	Uyga vazifa	O‘quvchilar oila a‘zosidan foydali maslahat, kasb siri yoki hayotiy saboq so‘rab, keyingi mashg‘ulotga yozib yoki eslab keladilar.

Mashg‘ulotning borishi

4 daqiqa | DIQQATNI JALB QILISH O‘YINI (“Ortiqchasini top”)

O‘QITUVCHI: - Aziz bolajonlar, yaqinda 1-oktabr — Ustoz va murabbiylar kuni.

 Bu — bizga har kuni bilim beradigan, xatolarimizni to‘g‘rilashga yordam beradigan, yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayishimizga yo‘l ko‘rsatadigan ustozlarimizni qadrlash kuni.

Ustozlar bizga faqat harf, son yoki kitobdagi bilimlarni o‘rgatmaydi. U yaxshilik qilishni, odobli bo‘lishni, mehnat qilishni, orzu qilishni ham o‘rgatadi. Har bir ustozning qalbida shogirdlari uchun katta mehr bor. Shuning uchun ham Ustozlarga doimo rahmat aytamiz, ularning bizga bergan bilimi, mehr-muhabbati va yaxshi

tarbiyasi uchun minnatdor bo‘lamiz. Chunki ustoz — qalbimizga bilim nurini yoqib, kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan aziz insondir.

Endi sizlar bilan “Ortiqchasini top” o‘yinini o‘ynaymiz. Qaysi biri ortiqcha?



O‘QUVCHILAR: O‘quvchilar ortiqchasini topadilar.

3 daqiqa | MOTIVATSIYA (Aqliy hujum)

O‘QITUVCHI: (Doskaga yirik harflar bilan “USTOZ” so‘zini yozadi.) - Bu so‘zni eshitganda ko‘z oldingizga nima keladi?

O‘QUVCHILAR: Qo‘l ko‘tarib, o‘ylagan narsalarini aytishadi (maktab, kitob, doska, mehr, sabr va h.k.).

4 daqiqa | VIDEO NAMOYISHI (“Qanot”)

O‘QITUVCHI: - Ajoyib fikrlar bo‘ldi! Endi ustozimizga bo‘lgan hurmatni his qiladigan bitta qiziqarli video ko‘ramiz. Diqqat bilan tomosha qiling: ustoz o‘quvchilarining holatini qanday sezib, ularga qanday yordam beradi?

O‘QUVCHILAR: Videoni diqqat bilan tomosha qiladilar

5 daqiqa | VIDEO MUHOKAMASI (Savol-javob)

O‘QITUVCHI: - Ustoz Malikaning xafaligini qanday sezib qoldi va unga qanday yondashdi?

-Ustoz Abrorga qanday yordam berdi va bu nega muhim edi?

-Mansur o'z rasmidan norozi bo'lganda, ustoz unga qanday so'zlar bilan ko'maklashdi?

-“Ustoz biladi, sezadi, ko'radi, yo'l boshlaydi” iborasini qanday tushunasiz?

O'QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi: video mazmunini eslashadi, o'z tasavvurlarini aytishadi, so'nggi savolga o'z fikrlarini bildirishadi.

4 daqiqa | VIDEO NAMOYISHI (“Ustozga hurmat”)

O'QITUVCHI: - Ajoyib fikrlar bo'ldi! Endi ikkinchi videoni ko'ramiz. Diqqat bilan kuzating: buyuk shoir Alisher Navoiy oddiy bir bolaga nega bunday katta ehtirom ko'rsatadi?

O'QUVCHILAR: Videoni diqqat bilan tomosha qiladilar

5 daqiqa | VIDEO MUHOKAMASI (Savol-javob)

O'QITUVCHI: - Navoiy nima uchun oddiy bir bolaga bunday katta ehtirom ko'rsatdi?

-Bu bola kim edi va bu javob mulozimlarni nega hayratga soldi?

-Yosh Navoiy o'z ustoziga qanday munosabatda bo'lgan va undan nima o'rgangan?

-Sizningcha, ustozni hurmat qilish kelajakda insonga qanday yordam beradi?

O'QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi: video mazmunini eslashadi, o'z tasavvurlarini aytishadi, so'nggi savolga o'z fikrlarini bildirishadi.

14 daqiqa | AMALIY O'YIN: “Ustoz bergan bilim bilan yaratiladigan kelajak”

O'QITUVCHI: - Bolalar, hozir sizlar bilan kichik sayohat qilamiz. Ammo bu sayohatda avtobus ham, samolyot ham kerak emas. Biz kelajakka xayolan boramiz! Ko'zlaringizni bir zum yumib, tasavvur qiling: oradan ko'p yillar o'tdi. Siz yashaydigan shahar butunlay o'zgargan. Unda qanday uylar bor? Maktablar qanday? Ko'chalari-chi? Odamlarga qanday qulayliklar yaratilgan?

Endi ko'zlaringizni oching. Kelajak shahrini o'zimiz chizamiz!

(O'quvchilar 5 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga katta qog'oz beriladi.)

O'QITUVCHI: - Har bir guruh kelajak shahrining bir qismini chizadi. Eng muhimi, bu oddiy shahar emas — siz tasavvur qilgan kelajak shahri bo'lsin!

1-guruh: 🏠 Kelajak uylari

2-guruh: 🎓 Kelajak maktabi

3-guruh: 🏥 Shifoxona va yordam markazi

4-guruh: 🌳 Bog'lar va dam olish maskanlari

5-guruh: 🚀 Kelajak texnologiyalari

O'QUVCHILAR: 5 daqiqa davomida guruhlar o'z qismini chizadilar.

O'qituvchi guruhlar orasida yurib quyidagi kabi qisqa savollar bilan bolalarni rag'batlantiradi: "Uyingizda qanday yangilik bor?", "Maktabingizda bolalar nimalarni o'rganadi?", "Odamlarga qanday yordam beriladi?", "Kelajak texnologiyangiz nima qila oladi?"

Ishlarni taqdim etish. Har bir guruh o'z rasmini ko'rsatib, 1 jumlada tushuntiradi: "Bizning kelajak uyimizda...", "Bizning maktabimizda...", "Odamlarga yordam beradigan joyimizda...", "Bizning bog'imizda...", "Bizning kelajak texnologiyamiz..."

O'QITUVCHI: (Barcha rasmlarni yonma-yon joylashtirib) - Mana, beshta guruhning tasavvuri birlashib, bitta katta Kelajak shahri paydo bo'ldi!

O'QITUVCHI: (Shahar rasmlariga qarab) - Bolalar, sizlar bu shaharda uylar, maktablar, shifoxonalar, bog'lar va yangi texnologiyalarni chizdingiz. Bularning barchasini kimlar yaratadi?

O'QUVCHILAR: - Odamlar! Kasb egalari!

O'QITUVCHI: - To'g'ri. Muhandis, shifokor, o'qituvchi, quruvchi, dasturchi va boshqa ko'plab kasb egalari kelajakni bunyod etadi. Ammo ular ham bir vaqtlar shu maktab partalarida o'tirgan o'quvchilar edi. Ularning qo'liga bilimni kim tutqazdi? Orzulariga yo'l ko'rsatgan inson kim edi?

O'QUVCHILAR: - Ustoz!

O'QITUVCHI: - Demak, biz chizgan kelajak shahri aslida bugungi bilimlardan boshlanar ekan. Kelajak sari yo'l esa maktabdan, bilimdan va ustozdan boshlanadi.

4 daqiqa | YAKUNLOVCHI QISM (Refleksiya)

O'QITUVCHI: - Bugun biz ustozimizning hayotimizdagi beqiyos o'rnini bilib oldik: u har bir qadamimizni sezib, kuzatib turadi, buyuk allomalarimiz ham o'z ustozini har doim hurmat qilgan. Ustozga ehtirom ilmga, tarbiyaga va kelajakka hurmat ko'rsatishdir. Ustozni qadrlash orqali biz Vatanimizga munosib farzand bo'lishga intilamiz. Bugungi mashg'ulotdan so'ng ustozingizga qanday qilib minnatdorchilik bildirasiz?

O'QUVCHILAR: Savolga navbat bilan o'z fikrlarini bildiradilar (salomlashish, tinglash, uy vazifasini bajarish va h.k.).

2 daqiqa | UYGA VAZIFA

O'QITUVCHI: -Uyga borib, oila a'zolaringizdan (ota-ona, buvi-bobo) bittadan foydali maslahat, kasb siri yoki hayotiy saboq so'rab, yozib yoki eslab keling. Kelasi mashg'ulotda "Oilamning hikmatlar sandig'i"ni birga to'ldiramiz.